

XIX VA XX-ASR JADIDLARI.



*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi
9-A sinf o'quvchisi
Meyliyeva Dilnura*

XIX va XX-asr tariximizga “Taraqqiy parvar jadidlar” nomi bilan kirgan. “Jadid” so’zi arabchada “Yangi” degan ma’noni berib turadi. Mana shu taraqqiy parvar jadidlar atamasi orqasida kimlar turganini bilasizmi?

Jadidchilik harakatlari dastlab Rossiya imperiyasi tarkibiga kiruvchi Qrim, Kavkaz orti turkistonda vujudga keldi. Qrim-Tatar ma’rifatparvari bo’lgan Ismoil G’aspirali jadidchilik harakatini asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy ilmlarni chuqurroq o’rganishga intilgan va xar xil xalqlar madaniyatini o’rgangan. Ismoil G’aspirali 1884-yil jadid maktabini ochadi. Uning maktabida 12 ta o’quvchini 40 kun ichida savodi chiqadi. Uni rahbari muallimin yoki muallimlarga yulduz yo’ldosh darsligi 1888-yilda chop etiladi. U maktab ta’lim tizimi dar o’tish va uni tashkil qilishni yo’lga quygan. Xuddi mana shu mana shu Jadidchilik harakatlari Turkiston o’lkasida ham keng tarqaldi. Bunga “Tarjimon” gazetasi katta yordam berdi. Ayniqsa, Ismoil G’aspirali 1893-yilgi tashrifi Turki bo’ldi. U Toshkent, Samarqand va Buxoroga yangi usuldagi maktab faoliyatini olib kirdi. Buxoro amirligida yangi usuldagi maktab ochildi nafaqat, Buxoro balki Samarqand, Andijon, Quqon, Xiva kabi shaharlar ham jadidchilik maktabiga aylana boshladi. Jadidchilik harakatlarimimg namayondalari Abdulla Avloniy Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy Saidahmad Siddiqiy –Ajziy Munavvarqori Abdirashidxonov, Abdirauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho’lpon, Is’hoqxon Ibrat va ko’plab ma’rifatparvarlar hisoblanadi. Jadidlarimiz ko’plab tahqirlanishi uchrab turgan, ammo ezgu ishlarini yanada davom ettirishga. Ular ko’plab mamlakatlarga borib maktab usullarini urganib kelishgan edi. Misol uchun Mahmudxo’ja Behbudiyni olaylik. U Samarqandda madrasa ochdi. Bu 1900-yilga to’g’ri keldi. Behbudiy “O’rta Osiyo jadidlarini otasi” deb tan olingan edi. U 36 yosh bo’lsada ko’plab to’siqlardan o’tdi. Birinchi o’zbek drammasi “Padarkush” ham Behbudiyning qalamiga mansub. Behbudiy Yangi maktabga yangi darsliklar

yaratdi. Bularga: “kitobatul –atfal “, “Muxtasari jo’g’rofiyali ro’si “, “Amaliyoti islom “,” Muntaxabi jo’g’rofiyayi umumiy” larni kiritamiz. Afsuski, Behbudiy 1919-yil dushmanlari tomonidan Qarshi shahrida qatl qilindi Abdulla Avloniyning o’laylik. U 1878-yilda tug’ilgan. Uning ota-onasi to’quvchilik bilan mashg’ul bo’lgan. Ular birgalikda Toshkentda yashashgan Abdulla Avloniy ham o’zini maorif tizimi bilan nom olgan shaxslardan biri edi. U 1907-yil “shuhrat gazeta bilan birga” “birinchi muallim “ “ ikkinchi muallim” va “Turkiy Guliston yohud axloq” darsliklarni amalda qo’lladi. Abdulla Avloniy SAGU da til kafedrasida ishlagan. U 1934-yil qurbon bo’ldi. Abdurauf Fitrat esa 1886-yil Buxoroda tug’ildi. U “Munozara”, “Sayyoh hind“,” Chin sevish“,” O’g’izxon” , ” Temur sag’anasi“,”Abul fayzxon “asarlarni yaratadi. U ham 1938-yil huddi boshqa jadidlar kabi qatag’on qurboni bo’ldi. Mahmudxo’ja Behbudiy munosabati bilan butun Turkiston maorifchilari uning izidan yurishdi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla avloniy, va Mumavvarqori tomonidan hayriyalar kutubxona dukonlar va eng muhimi maktablar tashkil qilindi. Bulardan tashqari ko’plab jadidlar ozodlim yo’lida yurishdi. Ular Qo’qonda “Turkiston muhtoriyatini “ tashkil etishdi. Lekin bu jamiyat atiga 72kun yashadi jadidlarimiz qatag’on qurboniga aylangan edi. Biz hozirgacha Behbudiy, Abdulkla avloniy vako’plab jadidlar so’zlarini yodimizda saqlaymiz. Behbudiy bizga jadidlarni unutmashimizni va ularni tashkil qilgan maktab maorifini davom ettirishimizni xohlagan. Abdulla avloniy esa tarbiya bizni yo hayotga yoki momotga yo najotga yoki falokatga olib borishni aytib o’tgan. Biz jadidlarimiz ya’ni ulug’ bobolarimiz yurgan yo’llardan yurishimiz shart. Ularni maqsadi bo’lgan maktablarni ochish o’zlari uchun emas, balki keyingi avlod uchun bo’lgan. Tariximizga qarang go’zal va buyuk. Bu tarixni chiroyli davo ettirish biz yoshlar qo’lidadir.!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston tarixi 9-sinf darsligi “Sharq nashriyoti –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent -2019
2. tarbiya 9-sinf darsligi Toshkent “O’zbekiston” 2020
3. “Tanlangan asarlar” Toshkent 1997-yil
4. “Toshkent Tongi” Toshkent 1979-yil
5. “Chin sevish” Toshkent 1996-yil